



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 5

Published: 05.05.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

MILLIY TARBIYA KONSEPSIYA

Kuziboyeva Farangiz., Jumaboyeva Nargiza., Teshaboyeva Marjona

Andijon davlat pedagogika instituti

Uzbekistan

adpi@edu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy tarbiya konsepsiyasining nazariy-metodik asoslari, tarixiy ildizlari va zamonaviy ahamiyati chuqur tahlil etilgan. Milliy tarbiya – bu xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini, an’analari, til, din, tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash kabi omillarga tayangan holda yosh avlodni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash tizimi sifatida qaraladi. Maqolada milliy tarbiyaning asosiy komponentlari – vatanparvarlik, milliy g‘urur, axloqiy poklik, madaniy merosga hurmat, ijtimoiy faollik va mehnatsevarlik singari fazilatlarini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Bundan tashqari, xalq pedagogikasi, mashhur mutafakkirlar (Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Abdurauf Fitrat va boshqalar)ning g‘oyaviy merosi asosida milliy tarbiyaning o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada milliy tarbiya jarayonida oila, maktab va jamiyat hamkorligining ahamiyati, shuningdek, globallashuv va zamonaviy axborot oqimi sharoitida milliy tarbiyani kuchaytirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy tarbiya, jamiyat, konsepsiya, xalq pedagogikasi, qadriyat vatanparvarlik.

Аннотация: В статье дается глубокий анализ теоретико-методологических основ, исторических корней и современного значения концепции национального образования. Национальное воспитание рассматривается как система воспитания подрастающего поколения как всесторонне развитой личности, основанная на таких факторах, как духовные и культурные

ценности, обычаи, традиции, язык, религия, историческая память, осознание национальной идентичности, которые формировались на протяжении веков. В статье освещается роль основных компонентов национального воспитания в формировании таких качеств, как патриотизм, национальная гордость, нравственная чистота, уважение к культурному наследию, общественная активность, трудолюбие. Кроме того, анализируется роль национального воспитания на основе народной педагогики и идейного наследия известных мыслителей (Алишера Навои, Ахмеда Яссави, Абдурауфа Фитрата и др.). В статье обосновывается важность взаимодействия семьи, школы и общества в процессе национального образования, а также необходимость укрепления национального образования в условиях глобализации и современных информации и современнич информатционн.

Ключевые слова: Национальное воспитание, общество, концепция, народная педагогика, ценность патриотизма.

Abstract: This article deeply analyzes the theoretical and methodological foundations, historical roots and modern significance of the concept of national education. National education is considered as a system of educating the younger generation as a comprehensively developed person, relying on factors such as the spiritual and cultural values, customs, traditions, language, religion, historical memory and awareness of national identity formed over the centuries. The article highlights the role of the main components of national education in the formation of such qualities as patriotism, national pride, moral purity, respect for cultural heritage, social activity and hard work. In addition, the role of national education is analyzed based on folk pedagogy, the ideological heritage of famous thinkers (Alisher Navoi, Ahmad Yassavi, Abdurauf Fitrat and others). The article substantiates the importance of family, school and society cooperation in the process of national education, as well as the need to strengthen national education. in the conditions of globalization and modern information flows.

Keywords: National education, society, concept, folk pedagogy, value patriotism.

Language: Uzbek

Citation: Kuziboyeva , F., Jumaboyeva , N., & Teshaboyeva , M. (2025). NATIONAL EDUCATION CONCEPT. *Universal International Scientific Journal*, 2(5), 48–53. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1830>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Tarbiya – bu inson hayotining asosi, jamiyat taraqqiyotining omilidir. Yaxshi tarbiya olgan inson har doim hurmatga sazovor bo‘ladi, jamiyatda o‘z o‘rnini topadi va

boshqalarga ibrat bo‘la oladi. Tarbiya shunchaki odob o‘rgatish emas, balki inson shaxsiyatini shakllantirish, uni axloqiy,

ma'naviy va ruhiy jihatdan boyitish jarayonidir

Tarbiya avvalo oilada boshlanadi. Bola ota-onasining harakatlarini kuzatadi, ularning so'zidan ko'ra amallaridan ko'proq ibrat oladi. Shu sababli, tarbiyada ota-onaning o'rnini beqiyosdir. Maktabda esa ustozlar orqali bilim bilan birga tarbiya ham beriladi. Ustozning halol, adolatli, vatanparvar bo'lishi o'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

-Tarbiya masalasi insoniyat paydo bo'lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha insoniyat hayotining iptidoiy davrlarida bolalarni tarbiyalashda stixiyali g'oyalarga paydo bo'lgan va tarbiya mazmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shakilda bo'lishiga qaramasdan ibtidoiy toda davridan insoniyat ongli yoki ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzluksiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda. Shu o'rinda yoshlarni axloqiy va irodali qilib tarbiyalash dolzarb muammo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Hozirgi mafuraviy taxdidlar kundan kunga kuchayayotgan bir paytda yoshlarni ayniqsa maktab o'quvchilarini tarbiyalash muammolarini hal etish masalalari qiyinlashmoqda.

Chunki har bir xalqning kelajagi uning yosh avlodiga bog'liq. Shu sababli ham barcha davr va jamiyatlarda tarbiya masalasi alohida e'tibor bilan qaraladigan muhim yo'nalish hisoblangan. O'zbekistonda milliy tarbiya konsepsiyasi asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi globalashuv davrida turli tashqi madaniy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir paytda, milliy tarbiya yoshlarda mustahkam ichki immunitetni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Agar yoshlar milliy qadriyatlar bilan qurollansa, ular turli yot

g'oyalarga berilmaydi, balki mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'ladi. milliy tarbiya konsepsiyasi – bu nafaqat tarbiyaviy yo'nalish, balki har bir insonning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi mezondir. Biz, yosh avlod, bu qadriyatlarni chuqur anglab, ularni o'rganish va hurmat qilish orqali Vatanimizning ravnaqiga munosib hissa qo'sha olamiz.

Milliy tarbiya – bu xalqimizning asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, qadriyatlari, axloqiy me'yorlari, madaniyati va diniy e'tiqodlariga tayangan holda yoshlarni tarbiyalash tizimidir. Bu tarbiya insonning ongini, dunyoqarashini, axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki milliy tarbiya orqali inson o'zligini anglaydi, o'z xalqiga, tiliga, diniga, tarixiga hurmat ruhida voyaga yetadi. Milliy tarbiya konsepsiyasi bir qancha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bularga axloqiy, ma'naviy, jismoniy, aqliy, estetik va vatanparvarlik tarbiyasi kiradi

Axloqiy tarbiya — bu insonning halollik, adolat, odob, hurmat, sabr-toqat kabi fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiya bo'lib, uni yaxshi va yomonni ajratishga, to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Ma'naviy tarbiya — bu shaxsning ichki dunyosini boyitish, ruhiy yuksalish, e'tiqod, vijdon, ezgulik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni singdirish orqali uni komil inson etib voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya — bu insonning sog'lom va baquvvat bo'lib ulg'ayishi, sport va harakatli mashqlar orqali jismoniy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatdir.

Estetik tarbiya — bu go'zallikni ko'ra olish, qadrlash va yaratishga o'rgatish jarayonidir. U san'at, musiqa, adabiyot va

tabiat orqali insonda did, noziklik va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi — bu yoshlarni Vatanga muhabbat, sadoqat, uni himoya qilishga tayyorlik ruhida tarbiyalash bo‘lib, milliy g‘urur va fuqarolik mas‘uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

- Bu yo‘nalishlar orqali yoshlar nafaqat bilimli va ma‘rifatli, balki halol, vatanparvar, odobli va g‘ururli shaxs sifatida kamol topadi. Ayniqsa, oilada, maktabda va jamiyatda berilayotgan tarbiyaning uyg‘unligi milliy tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Milliy tarbiyani shakllantirishda “Falsafa” fanining o‘rni beqiyosdir.

Falsafa – hayot haqidagi umumiy qarashlar tizimi sifatida milliy tarbiyaning mazmuni, maqsadi va metodologiyasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Falsafa milliy tarbiya uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki u inson tabiatini, jamiyat taraqqiyotini, axloqiy mezonlarni, qadriyatlar tizimini chuqur tahlil qiladi. Milliy tarbiya esa xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va ma‘naviyatiga tayanadi. Falsafa orqali esa bu boy meros ilmiy asosda o‘rganilib, zamonaviy talablarga mos tarzda rivojlantiriladi.

Masalan, O‘zbekiston tarixida jadidchilik harakati vakillari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoil G‘aspirali kabi mutafakkirlar milliy tarbiya masalalarini falsafiy qarashlar asosida asoslab berganlar. Ularning asarlarida milliy g‘urur, vatanparvarlik, axloqiy poklik, ilmga chanqoqlik kabi tushunchalar markaziy o‘rinni egallagan. Bu esa zamonaviy milliy tarbiyaning ildizlarini tashkil etadi.

Tarbiya haqida nafaqat jadidchilik harakati vakillari balki, ozbek adabiyot ustunlari Alisher Navoiy Axmad Yassaviy,

Maxmudxoja Bexbudiy kabi olimlar ham o‘z qarashlarini namoyon etgan.

Alisher Navoiy — o‘zbek adabiyoti va ma‘naviyatining buyuk namoyandasi bo‘lib, tarbiya masalasiga katta e‘tibor bergan. Uning asarlarida tarbiya, axloq, komil inson, ma‘naviy yetuklik kabi tushunchalar asosiy o‘rin egallaydi. Navoiy asarlarida Komil inson g‘oyasiga urg‘u beriladi

Navoiy nazarida tarbiyaning asosiy maqsadi — komil insonni yetishtirishdir. Komil inson — bu bilimli, axloqli, halol, xalqiga foydali bo‘lgan shaxsdir. U “Mahbub ul-qulub” asarida yozadi:

“Har kimki xalqni rizo istar, avval o‘zini rizo qilsin.”

Bu bilan u inson avvalo o‘zini tarbiyalashi, keyin boshqalarga ibrat bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

. Alisher Navoiy tarbiyani xalqning taraqqiyoti, davlatning mustahkamligi va jamiyat axloqining poydevori deb bilgan. U asarlari orqali bizga ma‘naviy yuksaklikka eltuvchi yo‘lni ko‘rsatgan. Bugun ham uning qarashlari zamonaviy tarbiya tizimi uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ahmad Yassaviy – tasavvuf ta’limoti asoschilaridan biri bo‘lib, uning tarbiya haqidagi qarashlari asosan ruhiy poklik, axloqiy yetuklik va Allohga yaqinlikka intilish bilan chambarchas bog‘liq. U o‘zining mashhur “Hikmatlar” asari orqali ko‘plab tarbiyaviy g‘oyalarni ilgari surgan Ahmad Yassaviyga ko‘ra, haqiqiy tarbiya nafaqat tashqi xatti-harakatni, balki qalbni poklashni ham o‘z ichiga oladi. U nafs bilan kurashni, sabr, tavoze, shukr, halollik kabi sifatlarni inson tarbiyasining markaziga qo‘ygan.

> “Nafsni yengmay, Haq yo‘lida yurmoq mushkul.”

Bu hikmat orqali u nafsni tarbiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy — o‘zbek jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy milliy ta‘lim-tarbiya tizimining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Behbudiy xalqning ma‘naviy uyg‘onishini, taraqqiyotini va milliy o‘zligini tiklashni tarbiya orqali amalga oshirish mumkin deb hisoblagan.

Falsafa, shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Milliy tarbiya jarayonida bolalar va yoshlar voqealarga mustaqil baho berishni, haqiqatni izlashni, qaror qabul qilishda adolatli bo‘lishni o‘rganadilar. Bu esa ularni ijtimoiy hayotga ongli tarzda tayyorlaydi.

Bugungi globallashuv davrida milliy tarbiyani mustahkamlash ayniqsa dolzarbdir. Falsafa bizga turli g‘oyalarning mohiyatini anglash, milliy qadriyatlarni saqlagan holda dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, u o‘z millatiga sodiq, barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi., Milliy tarbiyani falsafiy asoslar bilan boyitish – bu yoshlarda komil insonlik, vatanparvarlik, ma‘naviy yetuklik kabi sifatarni shakllantirish demakdir. Falsafa bizga nafaqat “nima qilish kerak?” degan savolga, balki “nima uchun?” degan chuqur savollarga ham javob topishga yordam beradi. Shuning uchun milliy tarbiya

tizimida falsafaning o‘rni har doim markaziy bo‘lib qoladi.

Xulosa;

Tarbiya inson hayotining poydevori va jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. U nafaqat odob-axloqni o‘rgatish, balki shaxsiyatni ma‘naviy, axloqiy va ruhiy jihatdan boyitish jarayonidir. Tarbiya avvalo oilada boshlanib, maktab va jamiyat orqali davom ettiriladi. Milliy tarbiya esa yoshlarni o‘z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va madaniyati bilan qurollantirib, ularni mustahkam ichki immunitetga ega, vatanparvar va axloqiy yetuk shaxslar sifatida shakllantiradi. Falsafa milliy tarbiyaning nazariy asosini tashkil etib, insonning dunyoqarashi va axloqiy mezonlarini chuqur tahlil qiladi hamda yoshlarni mustaqil fikrlashga, haqiqatni izlashga o‘rgatadi. Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy va Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi buyuk mutafakkirlarning ta‘limotlari milliy tarbiyaning ildizlari bo‘lib, zamonaviy tarbiya tizimining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bugungi globallashuv davrida milliy tarbiyani mustahkamlash va falsafiy asosda boyitish yosh avlodni barkamol, vatanparvar va ma‘naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. N.M.Koshanova, G.I.Aliyeva milliy tarbiyani rivojlantirish-globallashuv sharoitidagi zarifat sifatida. Academic Research in Educational Sciences.
2. Tarbiyaviy ishash konsepsiyasi(2005y).
3. M.A.Qurbonova. Yoshlar tarbiyasida falsafa fanining ro‘li” Innovative Academy”.
4. S.K.Sobirova Shaxs axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni.
5. G.G’ Avazmurodova “Tarbiya jarayonini mazmun mohiyati.
6. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.

7. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO 'LLASH.
8. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO 'LLASH.
9. Kamildjanovich, M. B. (2021). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 1-7.
10. Мамадалиев, Б. К. (2025). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 71(1), 234-237.
11. Mamadaliyev, B. K. (2018). Significance of Creative Tasks in Preparing Creative-Perfect Students. Eastern European Scientific Journal, (2).
12. Bazarbaevich, M. K., & Kamildjanovich, M. B. (2021). Solving Problems Of Applications Of Collection Theory. *Academicia Globe*, 2(05), 138-142.
13. Kamildjanovich, M. B. (2025). AMALIY DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA TALABALARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. *Global Science Review*, 2(1), 57-63. Адпи бтм Ибрагим, [24.04.2025 9:16]
14. Maratovich, A. I. (2025). O 'QUV JARAYONIDA GAMIFIKATSIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH VA TALABALARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH. *Global Science Review*, 2(1), 75-81.
15. Maratovich, A. I. (2025). BOSHLANG 'ICH TA'LIM TALABALARINI TA'LIMYIY GEYMIFIKATSIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 72(1), 144-146.
16. Maratovich, A. I. (2024). FORMATION OF STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION IN THE BASICS OF THE MATHEMATICS COURSE, SKILLS AND ABILITIES NECESSARY FOR DEEPER ASSIMILATION OF THE MATHEMATICS COURSE. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 3(2), 83-89.
17. Maratovich, A. I. (2024). THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS IN THE FORMATION OF A WORLDVIEW AND ITS PLACE IN THE STUDY OF THE SURROUNDING BEING. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(2), 122-125.
18. Ахунджанов, И. М. (2025). ГЕЙМИФИКАЦИЯ В ОБРАЗОВАНИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ. *Global Science Review*, 2(1), 87-91.